

Olqor Damin Lirikasida Leksik Vositalar Semantikasi

Ashurova Zulxumor Shodiye vna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi.

zulxumorashurova87@gmail.com. Ўзбекистон

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste'dodli bolalar shoiri Olqor Damin ijodidagi leksik vosita (**o'xshatish**)lar haqida so'z yuritiladi. O'xshatishning she'riy asarlarda o'ziga xosligi, undagi ma'noviy maydon qirralarining ko'pqatlamliligi, shuningdek, -day, -dek qo'shimchalarining fikrni kuchaytirish yo'sinidagi turfaaliklar xususida mulohaza qilindi. Ayniqsa, Olqor Damin ijodidagi bolalarbop she'rlarda bola tasavvuri, tafakkurini o'stirishga qaratilgan lingvopoetik, lingvodidaktik tamoyillar motivatsiyasi talqin rang-barangligini aniqlashda muhim omil bo'lishi tayin.

Tayanch so'zlar: so'z, leksema, fraza, maydon, stilistika, usul, metafora, vaziyat, holat, sifat, daraja.

Odatda, lirika tabiatida leksik-semantik tamoyil sajiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi poetik ta'minot markazida o'xshatilayotgan birliklar semasi kutilayotgan natija sabab va oqibat falsafasini ilgari suradi. Bir qancha she'riy asarlari bilan shuhrat qozongan iste'dodli bolalar shoiri Olqor Damin ijodini ana shunday hayotbaxshligi bilan e'tirof etish o'rinli. Demak, lirika ko'p qatlamli, mushohadkor, oniy kechinma mahsuli bo'lishi bilan bir qatorda, o'quvchi dunyoqarashini shakllantiradigan, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantiradigan hozirjavob janrlar sirasiga kiradi. Shoarning "Dono Chol", "Muattar o'ylar", "Quchoqlayman bahorni", "Salom Navro'z", "Bolalarga qirq hadis", "Afsona shahrim" singari asarlari o'quvchilar, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan she'riy guldastalari adabiy hayotimizda muhim yangilik bo'ldi. To'g'ri bola tasavvurini rivojlantirish oson ish emas., shunday bo'lsa-da, matn didaktik ta'minoti bola dunyoqarashini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi tayin.

Tilshunosligimizda hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik-stilistik qatlamlari o'rganilgan¹ bo'lsa-da, uni joriy kundagi bolalar adabiyoti lingvopoetik xususiyatlari timsolida tadqiq etish (O.Damin, A.Obidjon, D.Rajab) ko'zga tashlanmaydi. Bu bizning olib borayotgan tadqiqot ishimizda muhim yangilik bo'lishi bilan bir qatorda, bolajonlar ruhiy dunyosini kamol toptinishning lingvodidaktik, lingvopoetik qirralarini aniqlashda muhim omillardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tilshunos olimi G.Jumanazarova alohida qayd etganidek: "...tilning stilistik qatlamlaridagi so'zlarni nutq qatlamlaridagi so'zlarni nutq ob'ektiga, muayyan voqea-hodisalarga epik qahramonning sub'ektiv emotsional munosabati nuqtai nazaridan ikki gurugha ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi: ijobiy va salbiy munosabatni anglatuvchi leksik birliklar. Har ikkala guruhdagi so'zlar nominativ (atash) vazifasidan tashqari o'zlari ifodalayotgan tushunchaga nisbatan epik qahramonning sub'ektiv bahosini ham yorqin ko'rsatishga xizmat qiladi. Ularning bu xususiyati emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik jihatidan mutloqo neytral bo'lgan so'zlarga qiyoslangandagina yaqqol ko'zga tashlanadi.² Darhaqiqat, muayyan ikki gurugha ajratilgan ijobiy va salbiy munosabatni anglatuvchi leksik birliklar so'zlarning nomlanishi (qiyoslash, solishtirish, dalillash) tarzida jonlantirishga keng yo'l ochib beradi. Masalan, Olqor Daminning "Bolalarga qirq hadis" nomli she'riy manzumasining 23 –hadisida buning yorqin guvohi bo'lamiz:

“Yaxshiga yondoshing, yomondan qoching,

Bahordek dunyoga atirlar soching,

Yo'q, oltin oltin-mas, Yaxshilik – oltin,

Yaxshilik urug'in soching, ukalar,

¹ Begmatov E.B. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari .T.: Fan1985. – 199-b; O'zbek tili leksikologiyasi. – T.:Fan, 1981. – 312 b.; G'oyipov S. O'zbek tili leksikasining stilistik qatlamlari // O'zbek tili leksikologiyasi. – T.:Fan, 1981. –158-198 - b. va boshqalar.

² Jumanazarova G. Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari tilining lingvopoetikasi.T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashiyoti.Monografiya. 2012.152-b.

Qaldirg'och singillar, lochin ukalar!"³

Mazkur she'riy parchada antiteza usulidan keng foydalanilgan bo'lib, "yaxshi va yomon" farqini ajratish, "oltin"ning qadru qiyamati uning sofligida, "yaxshilik - oltin" metaforasi o'quvchini yanada o'ylashga undaydi. Natijada "singil"lar – "qaldirg'ochlar"ga, "ukalar" - lochin"ga o'xshatiladi. Bu o'rinda yomonlik – o'xshatish konstruksiyasi sanalib, yomon –o'xshatish asosidir. Antiteza usulida so'zning sintaktik qatlami yanada kengayib, u qush timsolida –bola xarakterini, oltin timsolida –yaxshilik nominativ komponentini yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan.

Olqor Damir ijodida leksik vositalar semantikasi har bir she'rda ma'noviy kengliklarni yanada jozibador ko'rinishda namoyon bo'lishiga keng e'tibor qaratilgan. Chunki bolalar she'riyatidagi aksariyat mushohadalar –o'xshatish orqali o'z yechimini topadi. Tabiat jismlari bilan o'xshatilayotgan voqeelik paradigmasida bola qalbini teran anglagan shoir ruhoniylar olami o'ziga xoslik kasb etgan:

“Olam uyining

Chirog'i – Quyosh.

Onadek u ham

Mehribon, yuvosh.

Odam uyining

Chirog'i – Ona.

Ikki quyoshga

Bizlar parvona"⁴.

³ Olqor Damir . Bolalarga qirq hadis. Samarqand. Zarafshon. 2005. 19-b.

⁴ Olqor Damir . Bolalarga qirq hadis. Samarqand. Zarafshon. 2005. 19-b.

Keltirilgan lavhada o'xshatishning tabiat ne'mati – quyoshga qaratilgani, quyosh – ona siymosida yanada mukarram ulug' zot, Yaratganning eng saxiy va mehribonligini namoyon qilganligi bilan ajralib turadi. “Quyosh-Ona” timsolida tabiatning beminnat va saxovatpesha, doimmo onaga o'xshab nur taratib turishi bola tasavvurida ko'nglida ulkan muhabbatni hosil qilishga yo'naltirilganligi bilan jozibador chiqqan.

Davr yaratgan she'riyat tagzamidida insonni sharafluvchi, bolalar nutqini yanada rivojlantiruvchi, ularga olam-olam estetik zavq-shavq beruvchi nozik xususiyatlar qabarib ko'rinadi. Ayniqsa, bolalar 5-10 yoshlarida she'riy asarlarni ko'proq mutolaa qilishsa, ulardagi hayot hodisalarini sinchiklab o'rganishga, bilim olishga, uddaburon va ziyrak bo'lishga keng yo'l ochadi. **She'riy misralardagi tagma'noni anglatish uchun leksik birliklar muhim o'rin tutadi. Lirikada o'xshatishning turlari juda ko'p va murakkabdir. Unda o'xshatilayotgan vosita (asos) bilan o'xshatilmish o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ahamiyatga ega.** Negaki, lingvopoetik unsurlar jamuljamida muayyan darajada “antonimlik” “sinonimlik”, “paronimlik” komponentlar yig'indisi haqqoniy holat, vaziyatni aniqlashga qaratiladi: - *day, dek*, singari o'xshatish qo'shimchalari o'quvchini o'zida anglanmagan sifatlarni yanada teranroq anglashga keng imkoniyat tug'diradi:

“Suvday yaxshi bo'lsam qani,

Chaman bo'lib kulsam qani!

Suvday shirin jon xalqinga

Tinmay xizmat qilsam qani!

Shildir-shildir etadi suv,

Kuylab Yerni o'padi suv”⁵.

⁵ Ko'rsatilgan adabiyot, 22-b.

Ushbu she’rda –day o’xshatish qo’shimchasini keltirib, suvga qiyoslangan bola tilidan aytilayotgan “suvday shirin”, “chaman bo’lish”ga qaratilgan da’vatda bola qalbida Vatanga muhabbat, tabiat in’omini asrab-avaylashga ichki ehtiyoj bo’rtib ko’rinadi. Demak, she’riy asarda o’xshatish kabi leksik qatlamlarning o’rni va roli ahamiyatli bo’lib she’riy asarda o’xshatish kabi leksik qatlamlarning, tasvir egzistensiyasini yuzaga chiqishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, o’xshatishlarning turli xil shakli shamoyili har bir she’rda bitta ma’noga tengligi bilan ham o’lchanadi. Jumladan, tabiat mo’jizalari: daraxtlar, suvlar, daryolar, ko’llar, dengizlar, bog’-rog’larga o’xshatilgan jihatlarda lirik qahramon xarakterini individuallashtirishga qaratiladi. Masalan:

“Biz – daraxtni bezagan

Yaproqlar, yaproqlar.

Yer yuzida Insonga

O’rtoqlar, o’rtoqlar.

Tinglasangiz -yoqimli

Navomiz, navomiz.

Simirsangiz – top-toza

Havomiz, havomiz”⁶.

Ko’rinadiki, Olqor Damir ijodida o’xshatishning yuqoridagi usulidan ham yangi-yangi ma’no qirralarini kashf qilishga qaratilgan jihatlar talaygina. “Yaproqlar” ning ikki xil usulda o’xshatilishi –o’rtoq va havo tarzida namoyon bo’lgan. Birinchi jumlada-insonga do’st bo’lishga da’vatkorlik kasb etsa, undan iste’mol qilish musaffolikni qadrlashga chaqiruvchi ahamiyatga ega ekanligini uqtinuvchi leksik maydon yuzaga kelganligini ta’kidlash o’rinli. Leksik qatlamlarning qo’llanilishidan bosh maqsad-leksik maydondir. U o’quvchi yoki

⁶ Olqor Damir Quchoqlayman bahomi. –T: O’zbekiston. 2010. 48-b.

bola tasavvurini o'tkirlashtiradi. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Hayot hodisalarini teran anglashga yo'l ochadi. Shu bilan bir qatorda mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini ham yuzaga chiqishida muhim hayotbaxsh vosita bo'lib xizmat qilishi tayin. **Negaki, aql bilan o'rgatilgan bilim bola tasavvurining pokiza ulg'ayib borishida juda qo'l keladi. Zero, Olqor Damin ijodida leksik birliklar semasi muayyan qoliplash usulidan tashqari, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik hosil qiluvchi eng asosiy komponent tarzida namoyon bo'lishi ayni haqiqatdir.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1]. Begmatov E.B. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.:Fan:1985. – 199-b; O'zbek tili leksikologiyasi. – T.:Fan, 1981. – 312 b.; G'oyipov S. O'zbek tili leksikasining stilistik qatlamlari // O'zbek tili leksikologiyasi. – T.:Fan, 1981. –158-198 - b. Va boshqalar .
- 2]. Jumanazarova G. Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonlari tilining lingvopoetikasi . –T.: Alisher navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Monografiya. 2012. 152-b.
- 3]. Olqor Damin. Bolalarga qirq hadis. Samarqand. Zarafshon .2005. 19-b.
- 4]. Olqor Damin. Quchoqlayman bahorni.T.: O'zbekiston. 2010. 48-b.